



UDK: 316.75:343

**Bobomurod ABDULLAYEV,**  
*Qo'riqlash bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i*  
E-mail: [abobomurod187@gmail.com](mailto:abobomurod187@gmail.com)

TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

### O'ZBEKISTON YOSHLARINING KORRUPSIYAGA MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston yoshlarining korrupsiyaga munosabatini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy, ma'naviy va institutsional omillar ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlar ongida korrupsiyaga qarshi qarashlarni shakllantirishda ta'lim tizimi, milliy qadriyatlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli muhitning o'rni ochib beriladi. Shuningdek, antikorrupsiya ongini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlari asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, yoshlar, ijtimoiy ong, ma'naviyat, antikorrupsiya madaniyati, integritet, ta'lim, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

### FACTORS SHAPING THE ATTITUDE OF UZBEKISTAN YOUTH TOWARD CORRUPTION

Annotation

This article analyzes the main social, spiritual, and institutional factors shaping the attitude of Uzbekistan's youth toward corruption from a socio-philosophical perspective. The study highlights the role of the education system, national values, mass media, and the digital environment in forming anti-corruption views among young people. It also substantiates the theoretical foundations and practical directions for developing anti-corruption awareness.

**Key words:** Corruption, youth, social consciousness, spirituality, anti-corruption culture, integrity, education, socio-philosophical analysis.

### ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОТНОШЕНИЯ МОЛОДЁЖИ УЗБЕКИСТАНА К КОРРУПЦИИ

Аннотация

В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются основные социальные, духовные и институциональные факторы, формирующие отношение молодёжи Узбекистана к коррупции. В исследовании раскрывается роль системы образования, национальных ценностей, средств массовой информации и цифровой среды в формировании антикоррупционных взглядов у молодёжи. Также обосновываются теоретические основы и практические направления развития антикоррупционного сознания.

**Ключевые слова:** Коррупция, молодёжь, социальное сознание, духовность, антикоррупционная культура, интегритет, образование, социально-философский анализ.

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv sharoitida korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. U nafaqat iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki ijtimoiy adolat, huquq ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlarining barqaror faoliyat yuritishiga ham putur yetkazadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib, uning mohiyatini chuqur ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etish zarurati ortib bormoqda.

Korrupsiya fenomeni o'z tabiatiga ko'ra faqat huquqiy yoki iqtisodiy muammo emas, balki inson ongi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq murakkab ijtimoiy jarayondir. Shu jihatdan qaraganda, korrupsiyaga nisbatan munosabatning shakllanishi, ayniqsa, yoshlar ongida qanday aks etishi jamiyatning kelajak rivojlanish istiqbollari belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar doirasida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda yoshlar ongida halollik va integritet madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonlar yoshlarning korrupsiyaga nisbatan qarashlari va munosabatini tubdan o'zgartirish, ularda ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston yoshlarining korrupsiyaga munosabatini shakllantiruvchi omillarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish, mazkur jarayonda ta'lim tizimi,

ma'naviy qadriyatlar, ommaviy axborot vositalari hamda raqamli muhitning o'rni aniqlash dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot aynan shu masalalarni kompleks yondashuv asosida yoritishga qaratilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Korrupsiya fenomeni zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng qamrovli va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa sifatida turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, xalqaro ilmiy maktablarda korrupsiyaga qarshi kurash masalalari institutsional, huquqiy va iqtisodiy jihatdan tahlil etilib, uning davlat boshqaruvi sifati, iqtisodiy rivojlanish hamda ijtimoiy ishonch darajasi bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki hamda Transparency International kabi xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida korrupsiya davlat institutlari samaradorligini pasaytiruvchi, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiruvchi va demokratik jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida talqin etiladi.

G'arb ilmiy adabiyotlarida korrupsiya, asosan, institutsional zaiflik, manfaatlar to'qnashuvi va boshqaruv tizimidagi shaffoflik yetishmasligi bilan izohlanadi. Xususan, T.Tyler, J. Rose-Ackerman, S.Huntington kabi olimlar korrupsiyani ijtimoiy ishonch, huquqiy itoatkorlik va siyosiy tizimning legitimligi bilan bog'liq holda tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun nafaqat huquqiy mexanizmlar, balki axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ongni shakllantirish muhim ekani ta'kidlanadi.

MDH davlatlari ilmiy muhitida korrupsiya muammosi ko'proq huquqiy va boshqaruv nuqtai nazaridan o'rganilgan. D.Primakov, T.Xabriyeva, E.Ivanov kabi tadqiqotchilar korrupsiyaning huquqiy mohiyati, uning oldini olish mexanizmlari hamda davlat boshqaruvida kompayens tizimining o'rni haqida

ilmiy xulosalar ishlab chiqqanlar. Biroq mazkur tadqiqotlarda korrupsiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va inson ongidagi aks etishi yetarli darajada yoritilmagan.

O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari, asosan, huquqiy va institutsional islohotlar kontekstida tadqiq etilgan. Jumladan, mahalliy olimlar tomonidan korrupsiyaning huquqiy asoslari, davlat siyosati, ochiqlik va shaffoflik mexanizmlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining roli tahlil qilingan. So'nggi yillarda mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy jihatdan asoslab berilmoqda.

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda yoshlar orasida korrupsiyaga qarshi ongni shakllantirish masalasi huquqiy ta'lim, ma'naviy tarbiya va innovatsion yondashuvlar asosida ko'rib chiqilgan. Ushbu ishlarda korrupsiya jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanib, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish muhimligi ta'kidlanadi.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston yoshlarining korrupsiyaga munosabatini shakllantiruvchi ijtimoiy, ma'naviy va axborot omillarini kompleks ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida o'rganish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga, yoshlar ongida korrupsiyaga nisbatan munosabat shakllanishining nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston yoshlarining korrupsiyaga munosabatini shakllantiruvchi omillarni kompleks o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda ijtimoiy-falsafiy yondashuv ustuvor metodologik asos sifatida qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida korrupsiya fenomeni faqat huquqiy yoki iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki inson ongi, axloqiy qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq murakkab ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tizimli-tuzilmaviy tahlil usuli – korrupsiyaga munosabatni shakllantiruvchi omillar (ta'lim tizimi, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy muhit, raqamli makon) o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Tarixiy yondashuv - O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining evolyutsiyasi va uning yoshlar ongiga ta'siri tarixiy ketma-ketlikda tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil metodi - xorijiy va milliy tajribalar solishtirilib, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari aniqlashtirildi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil - korrupsiya tushunchasi, uning axloqiy-ontologik mohiyati hamda inson ongidagi aks etish jarayoni falsafiy kategoriyalar (ong, erk, mas'uliyat, qadriyat) asosida tahlil qilindi.

Mantiqiy tahlil va umumlashtirish - mavjud ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma'lumotlar asosida xulosalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, tadqiqotda empirik materiallardan foydalanish ham muhim o'rin tutdi. Jumladan, yoshlar orasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar, kuzatuvlar va mavjud statistik ma'lumotlar asosida korrupsiyaga nisbatan munosabatning real holati va tendensiyalari aniqlashtirildi.

Mazkur metodologik yondashuv korrupsiyaga qarshi ongni shakllantirish jarayonini tizimli va kompleks tarzda yoritish, uning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ochib berish hamda ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekiston yoshlarining korrupsiyaga munosabatini shakllantiruvchi asosiy omillar kompleks tarzda tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sir mexanizmlari aniqlashtirildi. Olingan natijalar korrupsiya fenomenining yoshlar ongida aks etishi ko'p omilli va dinamik jarayon ekanligini ko'rsatdi.

Birinchi, ma'naviy-axloqiy omillar yoshlarning korrupsiyaga munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, halollik, adolat, vijdon va mas'uliyat kabi qadriyatlar

mustahkam shakllangan yoshlar korrupsiyaga nisbatan murosasiz pozitsiyani egallaydi. Aksincha, qadriyatlar tizimida deformatsiya yuzaga kelgan hollarda korrupsiyaga nisbatan loqaydlik yoki moslashuvchanlik kuzatiladi.

Uchinchi, ta'lim tizimi va huquqiy savodxonlik darajasi muhim determinant sifatida namoyon bo'ldi. Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi bilim va tushunchalarning tizimli berilishi yoshlarning ongida antikorrupsiya madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, huquqiy bilimlarning yetarli emasligi korrupsiyaga nisbatan noto'g'ri qarashlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchi, ijtimoiy muhit va kommunikativ makon (oila, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar) yoshlar dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan "oddiy hodisa" sifatida qarash mavjud bo'lsa, bu holat yoshlar ongiga ham ko'chadi va ijtimoiy tolerantlik darajasi oshadi.

To'rtinchi, davlat siyosati va institutsional islohotlar yoshlar ongida korrupsiyaga nisbatan munosabatni o'zgartirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar yoshlar orasida korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Beshinchi, raqamli texnologiyalar va ochiq boshqaruv tizimlari korrupsiyaga qarshi kurashishda yangi imkoniyatlarni yaratgani aniqlandi. "Ochiq budjet", "Ochiq ma'lumotlar" kabi platformalar orqali fuqarolar davlat faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish imkoniga ega bo'lib, bu jarayon yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning korrupsiyaga munosabati uch darajada shakllanadi:

individual daraja (axloqiy qadriyatlar va shaxsiy pozitsiya),

ijtimoiy daraja (muhit va kommunikatsiya),

institutsional daraja (davlat siyosati va huquqiy tizim).

Mazkur uch daraja o'zaro uyg'unlashgandagina barqaror antikorrupsiya ongini shakllantirish mumkin bo'ladi. Natijada, korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash mexanizmlari bilan cheklanmasdan, balki yoshlar ongida mustahkam ijtimoiy qadriyat sifatida shakllanishi zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

**Xulosa va takliflar.** Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston yoshlarining korrupsiyaga munosabatini shakllantirish ko'p qirrali va murakkab ijtimoiy jarayon ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiya fenomeni faqat huquqiy yoki iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini, ijtimoiy ong va institutsional muhit bilan uzviy bog'liq ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning korrupsiyaga nisbatan munosabati, avvalo, ularning axloqiy qadriyatlarini, huquqiy savodxonligi, ijtimoiy muhit va davlat siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va raqamli muhit yoshlar ongida korrupsiyaga qarshi qarashlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish fuqarolik jamiyati institutlarini faolligi va davlat boshqaruvida shaffoflik darajasiga ham bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligi yoshlar ongida antikorrupsiya madaniyati va integritet tamoyillarini mustahkamlash bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqladi. Bu esa korrupsiyaga qarshi siyosatni faqat jazolash choralariga emas, balki ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy va institutsional yondashuvlarga asoslash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, yoshlarning korrupsiyaga munosabatini shakllantirishda individual (axloqiy), ijtimoiy va institutsional omillarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillarni kompleks rivojlantirish orqali jamiyatda halollik, adolat va ijtimoiy mas'uliyat qadriyatlarini mustahkamlash, shuningdek,

korrupsiyaga nisbatan barqaror va murosasiz munosabatni shakllantirish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-60-son Farmon. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – 2022-yil 28-yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-5729-son Farmon. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – 2019-yil 27-may.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PQ-81-son Qaror. “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – 2022-yil 12-yanvar.
5. Qobilov I.Q. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashi (1991–2025) // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025.
6. Madaminova M.M. Yoshlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi ongni shakllantirishning huquqiy asoslari, innovatsion yondashuvlar va amaliy tashabbuslar tahlili // Education Science and Innovative Ideas in the World. – 2025.